

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TURKISTON JADIDLARINING IJTIMOYIY ISLOHOT VA IQTISODIY TARAQQIYOT HAQIDAGI QARASHLARI

Siddikov Ilyosjon Baxromovich
Madaminov Diyorbek Tolibjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, professor (DSc).

Farg'ona davlat universiteti, talaba.

e-mail: ilyos.s@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0000-0003-0629-0005>

e-mail: madaminovd@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0004-0795-8956>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XIX–XX asrlarda Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati va uning xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan g'oyalari tahlil qilingan. Jadidlar nazariyasida xalq farovonligi faqat moddiy jihatdan emas, balki ma'naviy, ijtimoiy, madaniy va huquqiy sohalarida ham keng qamrovli rivojlanishini talab qilgan. Ularning asosiy g'oyalari orasida maorif va bilimni rivojlantirish, iqtisodiy madaniyat va mehnatkashlikni targ'ib qilish, sog'liq va turmush darajasini yaxshilash, axloq va ma'naviyatni rivojlantirish, hamda ijtimoiy va huquqiy ongni shakllantirish masalalari alohida urg'u bilan berilgan. Maqola jadidlarning ushbu sohalarida olib borgan islohotlari va ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida fikr yuritadi, shu bilan birga, harakatning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati va milliy taraqqiyotdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, xalq farovonligi, maorif va ta'lim, iqtisodiy madaniyat, ma'naviyat va axloq, sog'liq va turmush darajasi, ijtimoiy-falsafiy qarashlar.

ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА СОЦИАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Сиддиков Илёсжон Бахромович
Мадаминов Дие́рбек Толибжон угли

Ферганский государственный университет, профессор (DSc).

Ферганский государственный университет, студент.

Аннотация.

В данной статье анализируется движение джадидов в Туркестане в XIX–XX веках и их идеи, направленные на обеспечение благосостояния народа. Согласно теории джадидов, благосостояние народа предполагает развитие не только в материальном, но и в духовном, социальном, культурном и правовом аспектах. Основные идеи движения включают развитие образования и науки, пропаганду экономической культуры и трудолюбия, улучшение здоровья и уровня жизни, развитие нравственности и духовности, а также формирование социального и правового сознания. Статья рассматривает реформы, проведенные джадидами в этих областях, их влияние на современное развитие общества, а также социально-философское значение движения и его роль в национальном прогрессе.

Ключевые слова: джадидизм, благосостояние народа, образование и наука, экономическая культура, духовность и нравственность, здоровье и уровень жизни, социально-философские взгляды.

VIEWS OF THE TURKISTAN JADIDS ON SOCIAL REFORM AND ECONOMIC DEVELOPMENT

Siddikov Ilyosjon Baxromovich
Madaminov Diyorbek Tolibjon o'g'li

Fergana State University, Professor (DSc).

Fergana State University, Student.

Abstract.

This article analyzes the Jadid movement in Turkestan in the 19th–20th centuries and its ideas aimed at ensuring the welfare of the people. According to the Jadids' theory, the welfare of the people requires development not only in material terms but also in spiritual, social, cultural, and legal spheres. The movement's main ideas include the development of education and knowledge, promotion of economic culture and diligence, improvement of health and living standards, fostering morality and spirituality, as well as the formation of social and legal awareness. The article discusses the reforms implemented

by the Jadids in these areas, their impact on the modern development of society, and highlights the socio-philosophical significance of the movement and its role in national progress.

Keywords: jadidism, people's welfare, education and knowledge, economic culture, morality and spirituality, health and living standards, socio-philosophical views.

Kirish. Mamlakatimizda ma'rifat fidoyilari, shoir va allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib qilish orqali yoshlarni barkamol inson sifatida kamolga yetkazish, shuningdek, barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash muhim shartlardan biridir. Shuning uchun ham: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" [1:3].

Shu jihatdan olganda, jadidlarning jamiyat islohoti haqidagi konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli modernizatsiyaning genetik asosi ekanligini tadqiq etish zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jadidchilik harakatidagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda alohida o'ringa ega [3:6].

Mustaqillik yillarida tarixchilar, huquqshunoslar, faylasuflar va adabiyotshunoslar tomonidan jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda tarixchilar F. Qosimov, D. Alimova, S. A'zamxo'jayev, R. Abdullayev, Q. Rajabov, D. Ziyoyeva, B. Hasanov, U. Rashidov, Sh. Hayitov, K. Raxmonov, L. Muhammadjonova, G. Ostonova, T. Qozoqov; huquqshunoslar D. Tashkulov, N. Azizov, M. Ergasheva; faylasuflardan B. Ergashev, Z. Ahmedova, Sh. G'oyibova, S. Minavarov va adabiyotshunoslardan B. Qosimov, N. Karimov, Sh. Rizayev, U. Dolimov, Z. Abdurashidov asarlari asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, mustaqillik yillarida nashr etilgan kollektiv monografiyalar va darsliklarda ham XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi jadidchilik tarixi masalalari keng tadqiq qilingan [8:7].

So'nggi yillarda ma'rifatparvar bobolarimiz g'oyalari o'rganish, muhofaza qilish va keng targ'ib etish bo'yicha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilg'or tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shuning barobarida, "Jadid" nomli gazeta faoliyatini tiklash, Buxorodagi tarixiy maskanda jadidlar merosini o'rganish va namoyish etish maqsadida davlat muzeyini tashkil etish kabi amaliy ishlar bu g'oyalarni hayotga tatbiq etishda yorqin namuna sifatida xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Prezidentimiz Markaziy Osiyo hududida jadidlarning milliy davlatchilikka, mintaqaviy o'ziga xoslikni saqlashga hamda fuqarolik jamiyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda tadqiq etishning dolzarb ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi. Bu bobolar merosini zamonaviy ta'lim, ma'rifiy faoliyat va madaniy rivojlanish jarayonlariga integratsiya qilish orqali yosh avlodda milliy g'urur, tarixiy ong va ma'naviy yuksalishni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jadidchilik harakati XIX–XX asrlarda Markaziy Osiyoda paydo bo'lib, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy va ma'naviy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Jadidlar nazariyasida insonning rivojlanishi faqat moddiy jihatdan emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ham keng qamrovli bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Ular uchun xalq farovonligi deganda, birinchi navbatda, maorif va bilimni rivojlantirish tushuniladi: maktablar, kitoblar va matbuot orqali aholining ilm-fan va madaniy darajasini oshirish zarurligi e'tirof qilingan.

Jadidlar ta'limni xalq farovonligining asosi deb hisoblashgan. Ular maktab va madrasalarda zamonaviy fan va dunyoviy bilimlardan foydalanish orqali yosh avlodning aql-zakovatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy qarashga ega fuqarolarga aylantirishga uringanlar.

Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Jadidshunoslar tomonidan yakdil e'tirof etilganidek, ushbu harakatning asl maqsadi millatga o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish orqali Millat va Vatanni istiqbolga boshlaydigan, uning hayotida buyuk o'zgarishlarni sodir qiladigan yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish bo'lgan. Buning uchun taraqqiy etgan millatlar bilan hamqadam yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish lozim edi. Ammo qariyb to'rt asr davomida jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan an'anaviy mahalliy maktablar va ta'lim-tarbiya tizimi bilan bunga erishish mumkin emas edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan maktab va oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish jadid mutafakkirlarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Jadid pedagoglari ibtidoiy maktablarni «usuli savtiya» («tovush usuli») metodi asosida qayta tiklash masalasini davlat siyosati darajasiga olib chiqdilar: dastlabki alifbo darsliklari va o'qish kitoblarini yaratdilar. Gubernatorlik ma'murlari hamda mutaassib ulamalarning qarshiliklarini yengib, zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchi kadrlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ularning bunday faoliyati keskin kurashlar, ta'qib va tazyiqlar jarayonida kechdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek: «XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakati namoyandalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun biron maosh to'laganmi? Albatta, yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan» [2].

Jadidchilik, mohiyat e'tiboriga ko'ra, maorifni tubdan isloh etishdan boshlangan bo'lsa-da, mazkur davrda yuzaga kelgan har bir ijtimoiy-siyosiy hodisa jadidlar ta'siri doirasida bo'lgan. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, usuli jadid maktablarini ochish zaminida ham siyosiy masala – istiqloq, millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish, taraqqiy topgan, farovon millatlar qatorida ko'rish g'oyasi mujassam edi [6:4].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy vaziyat taqozosi bilan maydonga kelgan jadidlar Turkiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan savdo-tijorat faoliyatini yaxshi tushunar edilar. Shuning uchun ham ular bu sohani rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalarini ilgari surganlar.

Jadid ma'rifatparvarlari yangi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining ijobiy tomonlarini tushuntirish, ularni targ'ib qilish, Turkiston iqtisodiyotining ilg'or iqtisodiy munosabatlariga o'tishini yoqlab ilmiy, badiiy va publitsistik asarlar yozdilar, aholi o'rtasida o'z ilg'or g'oyalari yoydilar [10:3].

Abdurauf Fitrat Turkistonda milliy iqtisodiyotni ko'tarishning zaruriy asoslaridan biri savdo va tijoratni rivojlantirish ekanligiga alohida urg'u beradi. U savdo va tijorat orqali faoliyat yuritish, undan daromad topib tirikchilik o'tkazish musulmonlar uchun halol amallardan ekanligi muqaddas "Qur'oni Karim"da va muborak "Hadis"larda uqtirilganini ta'kidlaydi: "... islom shariati tijorat va davlatmandlikni man etgan emas, balki amr etgan. Biroq shuni ham bilishimiz lozimki, islom bizni tijorattan man etmagan-u, biroq baxillik, isrofgarchilik va ta'magirlikdan qattiq tortgan. Shunday ekan, har kim xudoning va uning rasuli mute'i ekan, puldorlik va tijorat ishiga intilishi lozim..." [7:163–164].

A. Fitrat tijoratning o'ziga xos madaniyati borligi va ularga amal qilish kerakligi to'g'risida uqtiradi. "... tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birontasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydir. Ayniqsa, bizning davrimizda tijorat juda e'tibor berishga arziydir" [7:164].

Fitrat butun ijodiy faoliyati davomida barchani olg'a intilishga va yangilikdan doimo xabardor bo'lishga, bir yerda depsinib, qotib qolmaslikka, hamisha izlanishga da'vat etadi. U o'sish va o'rganishdan mahrum bo'lishni butun hayotdan, tirikchilikdan mahrum bo'lish, deb uqtiradi. Biz keltirgan ko'chirmada Fitrat o'zbek jadidlari oqimining milliy burjuaziya taraqqiyoti to'g'risidagina g'amxo'rlik qilishni maqsad qilib olgan davr qarashlarini aks ettiradi, ammo yangilikka da'vat etish yetakchi fikr ekani bilan ham e'tiborni tortadi. "Ming yillik chirik odat" bilan endi yashab bo'lmasligini uqtirib, "Mana shu sababdan bizning tijoratimiz kundan-kunga orqaga qarab boradir, — deb davom ettiradi o'z fikrini, — men qattiq ishonamanki, millatning hayoti va mamoti bizning o'z savdogarlarimiz qo'lidadir. To'g'ri, bundan bir necha yil burun bizning idoramiz ulamolar qo'llarida edi. Lekin ular bizga rahbarlik qilishga o'zlik qildilar. Uning uchun istar-istamas bu muqaddas vazifa, ya'ni millatga rahbarlik qilish ularning qo'llaridan zamonaning taqozosi bo'yicha boylarning qo'llariga o'tdi..." [7:167].

Fitrat ayni davrda dinni yoqlab turib, mamlakatning kelajagi ham savdo-sotiqda, degan aqidaga alohida urg'u beradi. Zotan, jadidlar dastlab faqat savdo burjuaziyasining mafkurachilari sifatida maydonga chiqqan va Fitrat xuddi shu yo'nalishning ilk targ'ibotchilaridan biri edi.

A. Cho'lpon ham aksariyat yurtdoshlarining yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitiga ko'nikib keta olmayotganlari, bundan o'zgalar ustalik bilan foydalanayotganlarini ko'rib o'rtanadi. Bu haqda shunday yozadi: "Bir armani Qo'qozning qorong'u go'shalaridan kelub, istansada do'kon ochub, boy bo'lub ikki o'g'lini hukumat maktablarida tarbiya qilmakda..." [11:274]. Yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida aql va tadbir bilan ish yuritish lozimligini yaxshi bilgan Cho'lpon vatanimizning boyligini, tijoratimizning foydalarini chetlar cho'ntagiga solmasdan va bermasdan, o'z cho'ntagimizda olib yurmakimiz kerakdir, deydi.

Jadidlarning yana bir yirik vakili Abdulla Avloniy quyidagi g'oyalarni ilgari surgan edi: bugungi dunyoda davlatlar boshqalar boyligini urushlar qilib egallab olish usulidan voz kechdi. "Bu kunda madaniy millatlar urushlarni tijorat va sanoatga aylantirdilar va bu soyada g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrarlik va jodugarlik ila emas, tijorat, sanoatgirlik ila cholishqon Yevropo, Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmoqdadir" [4:56]. Bu yerda muallif turkistonliklarni tijorat ilmini chuqurroq egallab, boshqalarga tobe' bo'lib qolishdan saqlanishga chaqiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ham bu masalaga jiddiy e'tibor bergan edi. U "oxirgi vaqtlarda turkistonliklar tijorat ishlarida sinib" borayotganini achinib e'tirof etadi. "Oxirgi vaqtlarda biz – turkistonliklar tijorat, hatto, ziroat va do'kondorlik ishlarida na uchun sinarmiz?... Muning eng birinchi sababi ilmsizlik, to'g'risi, aqlsizligimizdur" [5:163].

"Mundan boshqa yana sinmoqimizg'a sabab toriyqi tijoratni, molni olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g'alla to'g'risida Amriqo, Afriko va Ovrupa bozor va ziroatlarining holidan, bo'lgan va bo'lmaganidan bexabarligimizdur... Eng oxirgi sabab sinmoqimizg'a shulki, tijorat maydonida nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanarmiz".

XX asr boshlaridagi fikrlar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan, desak, mubolag'a bo'lmas. Darhaqiqat, bizning bir qancha korxonalarimiz hamon jahon bozoridan, sanoatdagi o'zgarishlardan bexabar holda ish yuritmoqdalar, Behbudiy aytganlaridek, hamon "tavakkal" deb ish qiladurlar.

M. Behbudiy tijorat sohasida sinish va raqobatbardoshlikning pastligi sabablari haqida mushohada qilib, quyidagi sabablarni ko'rsatgan edi: birinchi — "nozoalla, hisobsizlik, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi"; ikkinchi — naf va zararimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamondan bexabarligimizdan, xulosa, jaholat va nodonligimizdandir; uchinchi — "qo'ldagi bor narsalarimizni to'y va azaga, behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y qilarmiz. Isrof qilarmiz"; to'rtinchi — "mundan boshqa yana sinmog'imizga sabab toriyqi tijoratni", dunyodagi bozor ahvolini, qayerdan mol olib, qayerda sotish mumkinligini, axborot olishni bilmaganimiz" [5:166–168].

Demak, jadidlar iqtisodiy madaniyat va mehnatkashlikni jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil sifatida ko'rganlar. Bunda faqat moliyaviy boylik emas, balki mehnat va samarali islohotlar orqali ijtimoiy taraqqiyot nazarda tutilgan.

Har bir jamiyatning farovonligi sog'liq va turmush darajasi bilan ham bog'liq ekanligi jadidlar diqqatini tortgan.

Ular aholining sog'lom turmushini ta'minlash, sanitariya va tibbiy xizmatlarni rivojlantirish orqali umuman hayot sifatini oshirish kerakligini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, axloq va ma'naviyatni rivojlantirish jamiyatning birligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil sifatida qaralgan. Ular insonning ichki ma'naviy olamini ilm va hurmat orqali rivojlantirishni ustuvor deb bilganlar.

Bundan tashqari, jadidlar jamiyatda sotsial va huquqiy ongni rivojlantirishning ahamiyatiga ham e'tibor qaratganlar.

"Jadidchilik, — deydi B. Qosimov, — ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg'onish ideologiyasi bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi — adabiyotni yangiladi, matbuot va teatrchilikni yo'lga qo'ydi, maorifda esa "yangi maktab konsepsiyasi" bilan chinakam inqilob yasadi. Eng muhimi, bularning barchasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab ko'rib chiqdi" [9].

Milliy demokratar bo'lgan jadidchilik harakatining eng muhim jihatlaridan biri milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o'rganishga qaratilgan edi. Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi, demokratik harakatlar mafkurasi hamda taktikasining amaliy jihatlarini o'rganib, ulardan o'z mamlakatlari uchun mos va to'g'ri keladiganini tanlab oldilar. Natijada milliy ziyolilarning mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kuchaydi, jadidlarning ikkiga ajralishiga, ya'ni sof madaniy-ma'rifiy ishlar tarafdorlari hamda ijtimoiy-siyosiy institutlarni isloh qilish, mustamlakachilik va feodalizm kishanlaridan ozod bo'lish tarafdorlariga bo'linishiga sharoit yaratildi.

Jadidchilik davlat, tuzum va boshqaruvni isloh etish, millatni rivojlantirish hamda, umuman, jamiyatni yangi hayot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim edi.

Xalq o'z huquq va burchlarini anglab, ijtimoiy faollikka kirishsa, jamiyatda adolat va taraqqiyot samarali bo'ladi. Shu tariqa, jadidlarning xalq farovonligi haqidagi g'oyalari keng qamrovli bo'lib, ularning maorif, iqtisodiy madaniyat, sog'liq, axloq, ma'naviyat va huquqiy ongni rivojlantirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettiradi.

XULOSA

Hozirgi kungacha mavjud ilmiy adabiyotlarda jadidchilik falsafasi to'liq va keng qamrovli tadqiq etilgan, deya olmaymiz. Odatda, bu masala ularning ma'rifatparvarlik g'oyalari va ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyati bilan cheklangan jihatlar orqali izohlanib kelingan. Garchi jadidlarning ijodida bevosita ontologiya yoki gnoseologiya kabi umumnazariy falsafiy masalalar kamroq uchrasa-da, ularning e'tibori, asosan, shu davr hayoti, millat taqdiri va jamiyatning rivoji bilan bog'liq bo'lgan muhim falsafiy muammolarga qaratilgan edi.

Jadidchilar islom olami faylasuflari tomonidan shakllangan qoidalar va bilimlardan oqilona foydalanib, o'z fikrlarini ilmiy-gumanistik va falsafiy nazariyalar darajasiga ko'tarishga harakat qilganlar. Ularning g'oyalari zamonaviy ma'rifatparvarlik, falsafiy fikrlash va ijtimoiy taraqqiyotga bag'ishlangan konseptual asos sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, jadidchilik falsafasi xalq ma'naviyatini yuksaltirish, milliy ong va mustaqil fikrni tarbiyalash yo'lida amaliy rahnamolik qilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik falsafasi — bu faqat ijtimoiy va ma'rifiy harakat emas, balki zamon va millat taqdiriga oid chuqur tahliliy, ilmiy-gumanistik qarashlar yig'indisi bo'lib, XXI asrda ham ma'naviy va madaniy rivojlanish uchun muhim intellektual meros hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2018-yil 29-dekabr. – № 271-272 (7229-7230).
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Milliy tiklanish. – 1998-yil 18-avgust.
3. Abdivohidov S. A. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020. – 45 b.
4. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1998.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
6. Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari: pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – 44 b.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
8. Jamolova D. M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 55 b.
9. Qosimov B. Jadidchilik va jadid adabiyoti (Davra suhbat) // Turkiston. – 1997-yil 17-may.
10. Rahimov R. K. Savdo-tijorat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish haqidagi jadidlarning qarashlari va yondashuvlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2015. – № 1 (yanvar-fevral).
11. Cho'lpon A. Asarlar. – II jild. – Toshkent, 1994.